



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ANIMALISTIK ASARLARDA DINIY-AXLOQIY DIDAKTIKA VA IJTIMOYIY BOSHQARUV MASALALARI

Boboxonova Feruzaxon Muhiddinovna
Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada Erkin Malik va Xudoyberdi To'xtaboyev hamda jahon adabiyotidan Bernard Werberning animalistik asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Erkin Malikning "Chumolilar saltanati", X. To'xtaboyevning "Quyonglar saltanati" hamda Werberning "Chumolilar trilogiyasi" tanlangan. Maqolada har bir asardagi didaktik hodisalar, qahramonlar tizimidagi ustoz-shogird an'analari va ijtimoiy boshqaruv masalalari yoritiladi. Qiyosiy tahlil asosida Erkin Malik talqinida diniy-axloqiy tarbiya obrazining namoyoni va uning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: animalistik janr, didaktika, Erkin Malik, Xudoyberdi To'xtaboyev, Nayzatish, Onboshi, Bernard Verber, "Chumolilar trilogiyasi", badiiy mahorat, diniy ta'limot.

РЕЛИГИОЗНО-ПРАВСТВЕННАЯ ДИДАКТИКА И ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В АНИМАЛИСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Бобохонова Ферузахон Мухиддиновна
Бухарский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ анималистических произведений Эркин Малик, Худойберди Тохтабойев и представителя мировой литературы Бернар Вербер. В качестве объектов исследования выбраны «Царство муравьев» Э. Малика, «Царство кроликов» Х. Тохтабоева и «Муравьиная трилогия» Б. Вербера. В статье освещаются дидактические явления в произведениях, традиции системы «учитель–ученик» среди героев и вопросы социального управления. На основе сравнительного анализа раскрывается образ религиозно-нравственного воспитания в интерпретации Э. Малика и его роль в формировании подрастающего поколения.

Ключевые слова: анималистический жанр, дидактика, Эркин Малик, Худойберди Тохтабойев, Найзатиш, Онбоши, Бернар Вербер, «Муравьиная трилогия», художественное мастерство, религиозное учение.

RELIGIOUS AND MORAL DIDACTICS AND ISSUES OF SOCIAL GOVERNANCE IN ANIMALISTIC WORKS

Boboxonova Feruzaxon Muhiddinovna
Bukhara State University, Lecturer

Abstract

The article presents a comparative analysis of animalistic works by Erkin Malik, Khudoyberdi Tokhtaboyev, and Bernard Werber. The selected objects of study include Erkin Malik's "The Kingdom of Ants," Kh. Tokhtaboyev's "The Kingdom of Rabbits," and Werber's "The Ant Trilogy." The article examines didactic phenomena in each work, the traditions of the teacher–student system among the characters, and issues of social governance. Through comparative analysis, the image of religious and moral education in Erkin Malik's interpretation and its role in the upbringing of the younger generation are revealed.

Keywords: animalistic genre, didactics, Erkin Malik, Khudoyberdi Tokhtaboyev, Nayzatish, Onboshi, Bernard Werber, "The Ant Trilogy," artistic mastery, religious teaching

O'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlarida animalistik asarlar hamisha muhim o'rin tutib kelgan. Hayvonlar va hasharotlar hayoti orqali insoniy munosabatlarni, ijtimoiy ziddiyatlarni va axloqiy me'yorlarni aks ettirish yozuvchidan yuksak mahorat talab etadi. Iste'dodli yozuvchi Erkin Malikning "Chumolilar saltanati" asari o'zining g'oyaviy yo'nalishi va obrazlar tizimi bilan alohida diqqatga sazovordir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Quyonglar saltanati" asari ko'proq ijtimoiy-siyosiy allegoriya, erkinlik va adolat izlanishlari bilan xarakterlansa, Erkin Malikning "Chumolilar saltanati" asari sof

didaktik, ma'naviy-axloqiy va diniy jihatdan turli hadislariga ham tayanadi. Erkin Malik o'z asarida chumolilar misolida yosh avlodga milliy mehnatsevarlik darsini, hayotiy e'tiqod va ustozga bo'lgan ehtirom falsafasini ham o'rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bugungi kunda adabiyot va diniy resurslarni moddiy obrazlar orqali samarali o'rganish, asarlardagi tarbiyaviy bilimlarni tahlil qilish, tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Asardagi bosh qahramon Nayzatishning kamoloti, uning ustози O'nboshi o'g'itlari va Ona chumolining diniy-axloqiy qarashlari tahlil markaziga qo'yiladi. Erkin Malikning "Chumolilar saltanati" asaridagi Ona chumoli butunlay biologik ona emas, balki butun jamiyatning ma'naviy ustози, "diniy ta'limot" tashuvchisi sifatida gavdalanadi. Ona chumoli o'z farzandlariga rizq beruvchining borligi, har bir mehnat ortida ilohiy bir hikmat yotganini, shukronalik falsafasini uqtiradi. Bu an'anaviy o'zbek bolalar adabiyotidagi "mehnatsevarlik" tushunchasiga diniy-axloqiy zamin hozirlaydi.

"...Ustoz dars boshlabdi:

— Shunday qilib, bolajonlarim, doimgidek bugun ham yaratuvchimiz — Alloh taoloni tanishda, bilishda davom etamiz. Dunyoda qancha jonli, jonsiz mavjudotlar bo'lsa, ularning bari o'z yaratuvchisini bilishi, tanishi shart. Unga sajda qilishi, Unga madh aytishi kerak. Bilsangiz, biz yashaydigan yer ostini judayam ko'p jonivorlar makon tutgan. Bu haqda oldin ham ko'p gapirganman. O'zimiz yer ostida yashasak-da, Tangri taolo rizqimizni yer ustiga sohib qo'ygan. Yaratuvchimiz shundayki, hadya qilingan turli noz-ne'matlarining bir misqoli ham uvol bo'lishini istamaydi. Biz uvolga qarshi kurashib, uning oldini olganimiz uchun yer yuzidagi ne'matlarga baraka kiradi. Bizning hayot yo'limiz ana shunday qobiliyat berganki, biron-bir dardga chalingan yerga qadamimiz yetsa, u sog'ayib, yashnab ketadi.

Bizda shunday ajoyib tarovatlar, islar borki, tabiatga zarar yetkazadigan hasharotlar uning hididan qirilib, yo'qolib ketadi. Foyda keltiradiganlari esa yashashda davom etaveradi. Chor atrofdagi olamga foydamiz tegsa tegadiki, zararimiz yetmaydi. Tabiat bilan oramizda ana shunday uyg'unlik bor..." [1]

"Chumolilar saltanati"dagi chumolilarning yashash tarzi tabiat qonuni, Yaratuvchi tomonidan oziqlantirish sifatida tushuntiriladi. Bu jihat Xudoyberdi To'xtaboyevning "Quyonglar saltanati"dagi ko'proq dunyoviy va ijtimoiy boshqaruv tizimidan tubdan farq qiladi.

Asarning amaliy-didaktik, animalistik tabiatini Nayzatish obrazida yaqqol ko'rish mumkin. U yosh, g'ayratli, lekin hali himoyasiz, qoni qaynoq yosh avlod vakili bo'lgan jangchi chumolidir. O'nboshi esa harbiy va hayotiy maktab ustozidir. U Nayzatishga nafaqat jismoniy jang qilishni, balki jamoa manfaatini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishni ham o'rgatadi.

"...Janob O'nboshi aytganidek, yo'lda to'g'ri yurish hazilakam ish emas ekan, hayot-mamot masalasi. Bitta yosh chumoliga to'g'ri yurishni o'rgatish uchun ikkita katta chumoli o'rta olib yurishga o'rgata boshladi.

Nayzatish ustozlardan chopish, yugurishni o'rganaman deb o'ylagan ekan, oldidagi katta chumoli ham, orqadagisi ham shoshmasdan, yuraymi, yurmaymi degandek qadam tashlar ekan. Go'yo o'rgatuvchi chumolilar nima uchun yo'lga chiqqanlarini unutib qo'ygandek. Nayzatishning yuragi tars yorilay debdi. Toqati toq bo'lib, oldindagi chumolining oyog'ini "yurmaysizmi, janob?" degandek salgina bosib qo'ygan ekan, peshonasiga shunday bir chertki tushibdiki, naq ko'zidan o't chaqna, tippa-tik bo'lib qolibdi. Bu ham yetmagandek orqasidan shunday tepki yebdiki, sal bo'lmasa oldindagi chumolining ustidan umbaloq oshib ketay debdi. Shoshgan chumoli peshonasidan chertki, orqasidan esa tepki yeydi, ana shunaqa.

Kutilmagan jazodan Nayzatishning dami ichiga tushib ketibdi. Oldidagi boshlovchi chumoli qanday yursa, shunday yura boshlabdi. U shu tobda Daqiyonus podsholigi davrida musulmon yigitlarga ergashib jannatiy bo'lgan podachining itini eslabdi. It yaxshi odamlarga ergashib jannatiy bo'ldi-ku. Nayzatish ham oldindagi va orqadagi chumolilarning aytganlarini qilib, balki jannatiy bo'lar..." [2]

Nayzatishning safdoshlari bilan bo'lgan sarguzashtlari o'quvchi uchun tajriba va xatolar "hayot darsligi" hisoblanadi. Har bir to'qnashuv va qiyinchilik ortida bir didaktik ilm yotadi. Masalan, "Birlikda quvvat, bo'linganni bo'ri yer" singari.

MUHOKAMA. Jahon adabiyotida chumolilar haqidagi mashhur asar Bernard Verberga xalqaro shuhrat olib kelgan "Chumolilar trilogiyasi" bo'lib, u quyidagi uch kitobdan iborat: "Les Fourmis" ("Chumolilar", 1991), "Le Jour des Fourmis" ("Chumolilar kuni", 1992), "La Révolution des Fourmis" ("Chumolilar inqilobi", 1996). Bu asarlar o'zaro mantiqan bog'langan bo'lib, ularda odamzod va chumolilar sivilizatsiyasi o'rtasidagi falsafiy, evolyutsion va ijtimoiy parallellar chuqur tahlil qilinadi [3].

"Chumolilar" asarning birinchi qismi bo'lib, syujeti ikkita parallel dunyo — insonlar va

chumolilar olamini tasvirlaydi. Parijdagi Uells familiyasiga mansub janobga amakisidan sirli meros — g‘aroyib uy qoladi. Shu uy podvalida hech kimga noma‘lum, chumolilarga doir maxfiy narsa yashiringan. Shu bilan bir paytda boshqa sahnada 103683 nomli chumoli koloniyada yashaydi. U o‘z uyini, o‘z “dunyo tartibini” va insoniyat bilan aloqani tushunishga urinadi. Roman ikki sivilizatsiya — inson va chumolilar hayotini solishtiradi: biri yuqori texnologik, lekin ma‘naviy jihatdan zaif; ikkinchisi esa mikromiqyosda, ammo mutlaq intizom va axloq ustiga qurilgan. Asar orqali Verber insoniyatning “katta sivilizatsiyasi” kamchiliklarini ko‘rsatib, chumolilar dunyosidagi tartib, o‘zaro aloqa va fidoyilikni e‘tirof etadi. Asosiy qahramonlar: Edmond Uells — olim va yozuvchi, “Nisbiy va mutlaq bilimlar ensiklopediyasi” muallifi; u asarda Verberning ramziy alter egosidir. Jonatan Uells — amakisining sirini o‘rganishga uringan asosiy inson qahramon; 103683 esa chumoli jamoasining intellektual vakili bo‘lib, u odamlar bilan “aloqa” yo‘lini topishga urinadi.

“Chumolilar kuni”da birinchi kitobdagi sirli voqealar davom etadi. Jonatan o‘g‘illari bilan birga chumolilar olamidagi voqealarni tekshirishda davom etadi, shu vaqtda chumolilar orasida ham “insonlarga qarshi kampaniya” boshlanadi. Bu gal insonlar ham “jangga kirishadi”; ular chumolilardan himoya sifatida maxsus zahar ishlab chiqishadi. Ammo bu urushni kim boshlagani va kim g‘olib bo‘lishini anglab bo‘lmaydigan darajaga yetadi. Asar g‘oyasi tabiat bilan insoniyat o‘rtasidagi nozik muvozanatni ko‘rsatadi. Inson o‘z ustunligini da‘vo qilgan sari o‘z ekologik yo‘qolishiga yaqinlashadi. Bu kitob ekologik va falsafiy ogohlantirish sifatida o‘qiladi. Qahramonlar: Lucienne va Jonatan Uells — olimlar oilasi, ular voqealarning markazida. Chumolilar jamoasi esa “superjamoat” deb ataladigan umumiy ong bilan harakatlanadigan turlar sifatida ko‘rsatilgan.

“Chumolilar inqilobi”. Trilogiyaning yakuniy qismida insonlar va chumolilar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ideologik va falsafiy darajaga chiqadi. Bir inson qizi g‘orda sirli kitob — professor Edmond Uellsning yozmalarini topadi. Shu payt chumolilar orasida ham yangi fikrlar, erkinlik va o‘zgarishlar haqida so‘z yurituvchi “inqilobchilar” paydo bo‘ladi. Kitobda ikki dunyoning o‘zaro o‘zgarishi, uyg‘unlashuvi va tushunish umidiga yo‘l ochiladi. Asar g‘oyasi “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”dan “sivilizatsiyalar hamkorligi” tomon buriladi. Verber insoniyatning kibru havosi, o‘zining “xudolik” orzusi ustidan falsafiy tanqid o‘tkazadi. Yakunida inson va chumolilar o‘zaro tushunishga yaqinlashadi, lekin bu ham halokatli tajribalarsiz kechmaydi.

Trilogiyaning umumiy g‘oyaviy asoslari:

- insoniy kibrlilik va ekologik mas‘uliyatsizlik tanqidi;
- bilim, onglilik va iyerarxiya tushunchalarini qayta ko‘rib chiqish;
- kollektiv ong va turdagi empatiya, ya‘ni bizdan boshqa ongli mavjudotlar bilan aloqa masalasi;
- fan va falsafa uyg‘unligi: biotibbiy, psixologik va sotsiologik g‘oyalar adabiy tilda ifodalangan.

Asarning tili va matn strukturasi o‘ziga xosligi shundaki, har bir bob chumolilar olami va inson dunyosi o‘rtasida almashib boradi. Orada “Edmond Uellsning Nisbiy va mutlaq bilimlar ensiklopediyasi”dan qisqa paragraflar keltiriladi. Ular kitob ichidagi “kitob” bo‘lib, falsafiy izoh va ilmiy kinoyalar orqali o‘quvchiga yangi burchakdan qarash imkonini beradi [4].

NATIJALAR. “Chumolilar trilogiyasi” fantastika, falsafa va ilmiy tafakkurning uyg‘unlashgan namunasi hisoblanadi. Bernard Verber bu asar orqali o‘quvchini “insoniyat bu sayyoradagi yagona ongli mavjudot emas” degan fikr bilan yuzlashtiradi. Shu jihatdan u zamonaviy ekologik-falsafiy adabiyotning muhim vakili hisoblanadi. Bu trilogiya nafaqat roman sifatida, balki ijtimoiy tajriba va antropologik o‘yin sifatida ham o‘qiladi — odamni tabiatdagi o‘rnini qayta baholashga undaydi.

Jihatlar	Xudoyberdi To‘xtaboyev (“Quyonglar saltanati”)	Erkin Malik (“Chumolilar saltanati”)	Bernard Verber (“Chumolilar trilogiyasi”)
Asosiy yo‘nalish	Ijtimoiy-siyosiy allegoriya: davlat boshqaruvi, erkinlik va adolat izlanishlari.	Ma‘naviy-axloqiy didaktika: diniy e‘tiqod, ustoz-shogird an‘anasi va mehnatsevarlik.	Falsafiy-evolyutsion fantastika: inson va tabiat sivilizatsiyasining to‘qnashuvi, ekologik ong.
G‘oyaviy asos	Dunyoviy qadriyatlar va demokratik prinsiplar tahlili.	Islomiy ma‘rifat, hadislar va shukronalik falsafasi.	Ilmiy tafakkur, nisbiy bilimlar ensiklopediyasi va global ekologiya.
Qahramon evolyutsiyasi	Ijtimoiy tuzumga qarshi kurash va	Nayzatish misolida nafsniyat, intizom va	103683-chumoli misolida turlararo mulohaza va

	erkinlikni anglash.	ma'naviy kamolot.	intellektual inqilob.
--	---------------------	-------------------	-----------------------

Xulosa. Erkin Malikning “Chumolilar saltanati” asari o‘zbek bolalar adabiyotiga animalistik janr orqali diniy-ma’rifiy didaktikani olib kirgani bilan ajralib turadi. Agar To‘xtaboyevda hayvonlar saltanati yomon tuzumni ochishga xizmat qilsa, Erkin Malikda bu saltanat ilohiy tartib va axloq maktabidir. X. To‘xtaboyevda satira va majoz orqali jamiyat illatlari fosh etilsa, Erkin Malikda tashviqot va didaktika orqali ideal axloqiy shaxs, ya’ni komil inson modeli yaratiladi. “Chumolilar saltanati”da chumolilarning tabiiy xususiyatlari — mehnatkashligi, iyerarxiyasi — saqlangan holda ularga insoniy ma’naviyat yuklanadi. “Quyonglar saltanati”da esa quyonglar ko‘proq insoniy jamiyatning ramziy niqobi vazifasini o‘taydi. Erkin Malik asarida tarbiya asosi iymon va e’tiqodga borsa, To‘xtaboyevda hurlik va erkinlikka borib taqaladi. Jahon adabiyoti vakili Bernard Verber esa bu mavzuni global miqyosga olib chiqib, insonni “tabiat gultoji” degan kibrdan voz kechishga va boshqa ongli mavjudotlar bilan hamohang yashashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, bu asarlar o‘quvchida:

- tabiatga nisbatan hurmat va hayrat hissini;
- ijtimoiy hayotda adolat va intizom munosabatlarini;
- ma’naviy olamda esa shukronalik va doimiy bilimga intilish tuyg‘usini shakllantiradi.

Ushbu qiyos o‘zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan hamnafasligini, shu bilan birga o‘zining milliy-diniy qadriyatlariga tayanib, o‘ziga xos xususiyat va yo‘nalishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Malik E. Chumolilar saltanati: qissa. – Toshkent: Akademnashr, 2025. – 160 b.
2. To‘xtaboyev X. Quyonglar saltanati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 256 b.
3. Istochnik chelovechnosti. Lyudi i zveri: ocherki / xudoj. B. Chuprigin. – M.: Det. lit., 1986.
4. Safarov O., Jamilova B. Bolalik boqiylik timsoli yoxud “muxbirlikning olis yo‘llari”. – Toshkent: Sharq, 2011.
5. M. Gorkiy va fan: materiallar to‘plami. – Moskva: Nauka, 1964.
6. Xorijiy adabiyot tarixi: seminar (akademik bakalavr darajasi uchun darslik). – Moskva: Yurait, 2015.
7. Jamilova B., Boboxonova F. Erkinlik, sadoqat va insoniylik g‘oyalarining badiiy-falsafiy talqini [elektron manba]. – URL: <https://uzresearchers.com/index.php/stj/article/view/5320>
8. Boboxonova F. Bolalarga bag‘ishlangan media kontentlar tahlili [elektron manba]. – URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xADU49wAAAAJ&citation_for_view=xADU49wAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
9. Eng yaxshi Bernard Werber kitoblari: sharh va taqrizlar [elektron manba]. – URL: <https://uz.unansea.com/eng-yaxshi-bernard-werber-kitoblari-sharh-va-sharhlar/>
10. Edmond Uells va “Nisbiy va mutlaq bilimlar ensiklopediyasi” tahlili [elektron manba]. – URL: <https://uz.quilt-patterns.com/17169727-the-mysterious-professor-edmond-wells>